

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

“Yuridik shaxslarni soliqqa tortish” fanidan

KURS ISHI

Mavzu: Mol-mulk solig'ini byudjetga undirishdagi muammolar

Bajardi: ST-73 guruh talabasi
Norqo'chqorov A.

TOSHKENT-2015

KIRISH

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqqa tortish bo'yicha amalga oshirilayotgan izlanishlarning aksariyat qismi yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarga bag'ishlangan bo'lib, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni alohida chuqur o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni sezilarli deb bo'lmaydi. Xususan, yuridik shaxslar to'laydigan mol-mulk soliqlari budjet tizimida katta salmoqqa ega bo'lmasada, ammo, soliq tizimida alohida ahamiyatga egadir.

Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlarni nazariy jihatdan tadqiq etish, bir tomondan ushbu soliqlarning budjet-soliq tizimidagi ahamiyatini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan aholining soliqlar xususidagi fikrlarini ijobiy bo'lishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarni alohida chuqur o'rganadigan ilmiy izlanishlarga ehtiyoj mavjuddir. Yuqoridagilarga tayanib, yuridik shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'ini nazariy jihatdan mushohada etish va ushbu soliqni hisoblash jarayonidagi muammolarni bartaraf etish jarayonlarini o'rganish maqsadida mazkur kurs ishi mavzusi yoritib berildi.

Yuridik shaxslardan mahalliy soliqlarni undirish mexanizmining samarali emasligi, soliqlarni undirishda muammolarning mavjudligi, soliqlarning amaldagi harakatini belgilovchi me'yoriy hujjatlar soliq voqe'liklarini to'liq qamrab olmasligi, ya'ni mukammal emasligi, mahalliy soliqlardan mol-mulk solig'ini undirish bilan bog'liq ko'pgina muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagilarga to'xtalib, "2010 yilda qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasiga muvofiq demokratik va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, davlat va ijtimoiy institutlar hamda sud tizimini isloh etish borasidagi vazifalarni izchil amalga oshirish eng ustuvor yo'nalish bo'lib qolayotganini alohida ta'kidlash lozim.

Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta'minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o'rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so'z yuritish mumkin emas.

Birinchi navbatda, jahon bozorida teng raqobatlasha oladigan va keyingi bosqichda iqtisodiy o'sishning, iqtisodiyotni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilishning lokomotiviga aylanishi mumkin bo'lgan tarmoq va korxonalarni jadal rivojlantirish hamda aniq yo'naltirilgan holda qo'llab-quvvatlashni ta'minlash zarur."¹, deya alohida qayd etdilar.

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. <http://uza.uz/oz/politics/-tub-tarkibiy-o'zgarishlarni-amalga-oshirish-17-01-2015>

Shulardan kelib chiqqan holda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirda, mamlakatimiz soliq tizimi oldida bozor munosabatlarini to'laqonli shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish bilan bir qatorda, davlat budjetini mablag'lar bilan ta'minlash hamda ustivor yo'nalishdagi iqtisodiy faoliyatni soliqlar vositasida qo'llab-quvvatlashni talab etiladi.

Mazkur yutuqlar bilan birgalikda soliqlar biz tomonimizdan yuqorida ta'kidlangan ikki vazifani to'liq bajarishga ojizlik qilmoqda. Bu narsa budjet daromadlarini shakllantirish va ishlab chiqarish sur'atlarini o'stirish nuqtai-nazaridan qaralganda ham yaqqol ko'rinadi. Bundan tashqari boshqa bir tomondan soliqqa tortiluvchi ob'yektlarning mustahkam moliyaviy ahvoli bilan juda ko'p narsa, birinchi navbatda, butun iqtisodiyotimizning barqarorligi va ana shu korxonalarda ishlayotgan odamlar va ularning oilalari daromadi va farovonligi uzluksiz bog'liqligi bizning nazarimizdan chetda qolmasligi kerak. Bunday holatlarning mavjud ekanligi shu sohada ilmiy izlanishlarni yanada izchil davom ettirish zarurligini taqozo etmoqda.

1. Soliq tizimida mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati

O'zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo'lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarning mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi bo'ldi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi Qonuniga asosan 1992 yildan boshlab joriy etildi va shu bilan birga korxonalarning ishlab chiqarish fondlariga to'lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.


Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko'ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlar summasi to'liq mahalliy budjetlarga tushadi va u budjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad birinchidan, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, ikkinchidan, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iborat. Chunki korxonalarning ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalaridan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtda ushbu soliqdan tushumlar O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining solikli daromadlarida 2.2 – 2.7 foiz oralig'ida tebranmoqda (1- diagramma).




1-diagramma. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarning davlat budjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi²

Diagramma ma'lumotlariga ko'ra davlat budjetining jami solikli daromadlarida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarning ulushi 2012 yilda 2004 yilga nisbatan 0,3 foizli punktga kamayganligini ko'rish mumkin. Bu holatni soliqqa tortish tartiblarini yanada takomillashib borayotganligi bilan izohlamoq kerak. Bunga bir xil ahamiyatli va samarasiz bo'lgan imtiyozlarni bekor qilinayotganligini misol keltirish mumkin.

² Ўзбекистон Республикаси Президенти ва Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида тайёрланган.

2. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bazasini aniqlash va soliqni hisoblash uslubiyati


Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini budjetga undirish tartibini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa albatta yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i obyektini aniqlash va hisoblash mexanixmini o'rganish muhimdir. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar quyidagilardir: O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari; agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan erini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir. O'zbekiston Respublikasi norezidentining faoliyati soliq kodeksiga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyat deb e'tirof etiladi.



1-chizma. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning to'lovchilari³

³Soliq kodeksi asosida talaba tomonidan tuzildi

Quyidagi mol-mulk soliq solish ob'ektidir: asosiy vositalar, shu jumladan moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar; tugallanmagan qurilish ob'ektlari. Tugallanmagan qurilish ob'ektlari jumlasiga qurilishi shu ob'ekt qurilishiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda nihoyasiga yetkazilmagan ob'ektlar kiradi; belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruktsiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan ob'ektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital quyilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarini ishga tushirish muddatlari bo'lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko'rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish ob'ektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.



2-chizma. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning obyekti⁴

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish ob'ektidir. Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk ob'ekti

⁴Soliq kodeksi asosida talaba tomonidan tuzildi

to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu ob'ektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari va (yoki) nomoddiy aktivlar tarkibida hisobga olinadigan ulardan foydalanish huquqi soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi. Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

-asosiy vositalar bo'yicha – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

-normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha – tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

Soliq solish ob'ektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish ob'ektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\begin{array}{ccccccccccc} \text{O'rtacha yillik} & 31 & + & 28 \text{ (29)} & + & \dots & + & 30 & + & 31 \\ \text{(qoldiq)} & \text{yanvar} & & \text{fevral} & & & & \text{noyabr} & & \text{dekabr} \\ \text{qiymati} & \text{-----} & & & & & & & & \end{array}$$

12

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk ob'ektlari bo'yicha soliq solinadigan baza mazkur ob'ektlarga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan qiymat asosida aniqlanadi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblash va budjetga o'tkazish mexanizmidagi asosiy muammolardan biri soliq stavkasi bilan bevosita chambarchas bog'liq hisoblanadi. Umuman yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida belgilanadi. 2014-2015 yillar uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning stavkasi quyidagi miqdorlarda belgilangan:

**Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning
stavkalarining o'zgarishi⁵**

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda	
		2014 yil	2015 yil
1.	Yuridik shaxslar	4	4
2.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun (bundan ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrda PF-1871 son Farmoni bilan tasdiqlangan xom-ashyo tovarlari mustasno):		
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30 foizga pasaytiriladi	belgilangan stavka 30 foizga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi	belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi

Belgilangan muddatlarda o'rnatilmagan asbob-uskunalar uchun mol-mulk solig'i ikki baravar miqdorda to'lanadi. Bundan tashqari, tugallanmagan qurilish va belgilangan (meyoriy) muddatlarda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar qiymatiga pasaytirilgan stavkalar qo'llanilmaydi.

Eksport mahsulot ishlab chiqaradigan va uni mustaqil ravishda sotadigan yoki ixtisoslashgan tashqi savdo birlashmalari va firmalari orqali sotadigan vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar va kompaniyalarning tarkibiy bo'linmalari hisoblangan korxonalar uchun sotishning umumiy xajmida o'zi ishlab chiqargan mahsulot (ish, xizmatlar) ning eksportdagi ulushiga bog'liq holda mol-mulk solig'ining tabaqalashtirilgan stavkalari belgilangan. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalarga berilgan imtiyoz savdo-vositachi korxonalarga, shuningdek, erkin almashtiriladigan valyutaga xom-ashyo tovarlari – paxta tolasi, ip gazlama, lint, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensati, rangli va qora metallarni eksport qiladigan ishlab chiqarish korxonalariga tadbiq etilmaydi.

⁵O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099-son va PQ-2270 sonli qarorlaridan olingan.

Korxonalar mulkiga soliq solinishining iqtisodiy sababi, ushbu soliqni undirish orqali korxonalar o'z ixtiyorlaridagi mulklardan to'liq va samarali foydalanishini ta'minlash. Ayniqsa bozor iqtisodiyoti har qanday resurslardan samarali foydalanishni talab qiladi. Mulk iqtisodiy faoliyat yuritishning birlamchi omillaridan biri ekan, undan ko'proq iqtisodiy samarali foydalanilishida davlat ham o'zini ma'sul deb bilmog'i lozim.

Endi Qumqo'rg'on tumanida joylashgan va faoliyat yuritayotgan “Ta'minot” korxonasining mol-mulk solig'idan to'lagan summalari va ularning mahsulot ishlab chiqarish tannarxidagi ulushi dinamikasini quyidagi jadval asosida ko'rib chiqamiz.

2-jadval

“Ta'minot” korxonasida mol-mulk solig'ining ishlab chiqarish tannarxidagi ulushi⁶
(ming so'mda)

№	Ko'rsatkichlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1	Ishlab chiqarish tannarxi	824575	1203469	1836390	2732956
2	Mol-mulk solig'i	19507	37399	10878	9722
3	Soliq yuki %	2,37	3,11	0,59	0,36

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, mol-mulk solig'ining ulushi ishlab chiqarish tannarxida kamayish tendentsiyasiga ega. Korxona yangi tashkil etilganligi uchun uning mol-mulkiga nisbatan juda past miqdordagi tuzatish koeffitsientlari qo'llanildi va 2013 yili soliq ulushi 0,59%ni tashkil etdi. Prezidenti Qaroriga binoan korxonalar tovarlarini erkin almashtiradigan valyutada eksport qilsa va eksport hajmi umumiy tushumning 30%dan yuqori bo'lsa belgilangan soliq stavkasi 50%ga kamaytiriladi. 2013 yilda eksport hajmi yuqori bo'lganligi sababli, korxona soliqni 1,75%li stavkada hisoblagan va bu tannarxning 0,36%ni tashkil etgan.

Mol-mulk solig'i ham korxonalar faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunisi qiziqarliki, korxonalarda to'plangan asosiy vositalar tarkibi o'rganib chiqilganda shunga amin bo'lindiki, yuridik shaxslarning aksariyatida ishlab chiqarish va texnologik jarayonga ishtirok etuvchi mulk ulushi juda past. Asosiy vositalarning passiv qismi xisoblangan ofis binolari, xizmat mashinasi,

⁶Korxonaning shu yillardagi hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

anchadan buyon foydalanilmaydigan omborlar kabi turlari balansda turibdi. Bizningcha, mulkdan samarali foydalanishni boshqarish uchun ularni aktiv va passiv qismlariga ajratilish asosida alohida-alohida stavkalarda soliqqa tortilishi kerak.

3- jadval

**2014 yildagi soliq davri uchun “Semurg” korxonasining mol-mulkiga
solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha
MA'LUMOTNOMA⁷**

Ko'rsatkichlar	Summasi
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar)ning hisoblangan o'rtacha yillik qoldiq qiymati	25000000
Soliq stavkasi, %da	4%
Soliq summasi (010-satr x 020-satr)	1000000
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati	-
Soliq stavkasi, %da	
Soliq summasi (040-satr x 050-satr)	-
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning taxmin qilinayotgan o'rtacha yillik qiymati	-
Soliq stavkasi, %da	-
Soliq summasi (070-satr x 080-satr)	-
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning umumiy summasi (030-satr + 060-satr + 090-satr)	1000000
Har oylik joriy to'lovlar summasi (satr-100/12)	83333,3

3-Jadval ma'lumotlarida 2014 yildagi soliq davri uchun “Semurg” korxonasining mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Jadvalga muvofiq Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning va nomoddiy aktivlarning xisoblangan o'rtacha yillik qoldiq qiymati 25000000 so'mga teng. Hisoblangan soliq summasi esa 1000000 so'mga teng bo'lgan. Har oylik joriy to'lovlar summasi esa 83333,3 so'mga tengdir.

⁷2014 yildagi soliq davri uchun “Semurg” korxonasining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosda tayyorlangan.

**“Qumqo'rg'on paxta” tashkilotining mol-mulkiga solinadigan
solliq hisob-kitobi tahlili⁸**

ming so'mda

Ko'rsatkichlar	Summa
Asosiy vositalar, shu bilan birgalikda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati - <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 070-satri</i>	270500
Solliq solinadigan bazaning kamaytirilishi - <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solliq hisob-kitobiga 4-ilovaning 010-satri</i>	45800
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solliqni hisoblash uchun solliq solinadigan baza (010-satr – 020-satr)	224700
Belgilangan solliq stavkasi, %	4%
Tuzatilgan stavka, % - <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solliq hisob-kitobiga 6-ilovaning 060-satri</i>	-
Solliq summasi (030-satr x 040-catr, yoki 050-satr)	8988
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'ektining o'rtacha yillik qiymati – <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 080-satri</i>	-
Solliq stavkasi, %da	-
Solliq summasi (070-satr x 080-satr)	-
Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan uskunaning o'rtacha yillik qiymati – <i>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 090-satri</i>	-
Solliq stavkasi, %da	-
Solliq summasi (100-satr x 110-satr)	-
Budjetga to'lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solliq summasi (060-satr + 090-satr + 120-satr)	8988

4-jadval ma'lumotlarida “Qumqo'rg'on paxta” tashkilotining mol-mulkiga solinadigan solliq hisob-kitobi tahlili keltirilgan. Tahlillarga asosan “Qumqo'rg'on paxta” tashkilotining davlat budjetiga 8988 ming so'm miqdoridagi mol mulk solig'ini to'lashi lozim.

⁸2014 yildagi solliq davri uchun “Qo'shrabot paxta” tashkilotining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

3. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlar tahlili

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisoblab chiqarilayotganda soliq solinadigan baza quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

- uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlarining. Uy-joy-kommunal xo'jaligi ob'ektlariga quyidagilar kiradi: uy-joy fondi, vodoprovod tarmoqlari (suv chiqarish inshootlari bilan), kanalizatsiya tarmoqlari (tozalash inshootlari bilan), gaz va issiqlikni taqsimlash tarmoqlari (ulardagi inshootlar bilan), kommunal-maishiy ehtiyojlar uchun qozonxonalar (shu jumladan asbob-uskunalar);

- madaniyat va san'at, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha ob'ektlarining;

- yuridik shaxslarning madaniyat muassasalari, maktabgacha va umumta'lim o'quv muassasalari ehtiyojlari uchun foydalaniladigan mol-mulkining;

- sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari ob'ektlarining;

- tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan ob'ektlarning. Ob'ektlarni tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari uchun foydalaniladigan ob'ektlarga kiritish tabiatni muhofaza qilish organining ma'lumotnomasi asosida amalga oshiriladi;

- umumiy foydalanishdagi temir yo'llar va avtomobil yo'llari, magistral truboprovodlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek ushbu ob'ektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

- konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

- soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik ob'ektlarning;

- shahar va shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar tashiydigan shahar yo'lovchilar transporti tashkilotlari transport vositalarining (avtobuslar, tramvaylar, trolleybuslar, metropoliten poezdlari);

- tuzilgan shartnomalarga muvofiq yuridik shaxsning buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining (foydalanish davriga);

- telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarining;

- ko'pi bilan o'n yil davomida ishlatib kelinayotgan mashina va asbob-uskunalarining. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan quyidagilar ozod qilinadi: 1) sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya hamda ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, madaniyat va san'at tashkilotlari; 2) uy-joy-kommunal xo'jaligi va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik shahar xo'jaligi korxonalari. Uy-joy-kommunal va boshqa umumfuqaroviy ahamiyatga molik

shahar xo'jaliklari jumlasiga uy-joy fondini bevosita boshqarish, saqlash hamda undan foydalanishni amalga oshiruvchi tashkilotlar, sanitariya tozalash va yig'ishtirish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, shaharlar hamda shaharchalarni tashqi yoritish, vodoprovod suv olish inshootlaridan, taqsimlanadigan tarmoqlardan (tozalovchi inshootlari bilan) foydalanish va suvni taqsimlash, kanalizatsiya tarmoqlaridan foydalanish (tozalash inshootlari bilan), gaz taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish hamda gazni taqsimlash, qozonxona, issiqlik taqsimlanadigan tarmoqlardan foydalanish va kommunal-maishiy ehtiyojlarga hamda aholiga issiqlikni taqsimlashni bevosita amalga oshiruvchi tashkilotlar, xizmat binolarining xo'jalik boshqarmalari, o't o'chirish komandalari, uy-joy-kommunal xo'jaligining xo'jalik boshqarmalari, uy-joy-kommunal xo'jaligi va shahar xo'jaligining umumfuqaroviy ahamiyatga molik boshqa korxonalari kiradi; 4) yangi tashkil etilgan korxonalar – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida. Mazkur imtiyoz tugatilgan (qayta tashkil etilgan) korxonalarning ularga qarashli alohida va tarkibiy bo'linmalarining ishlab chiqarish quvvatlari hamda asosiy fondlari negizida tashkil etilgan korxonalarga, shuningdek korxonalar huzurida tashkil etilgan yuridik shaxslarga nisbatan, agar mazkur yuridik shaxslar ushbu korxonalardan ijaraga olingan asbob-uskunalarda ishlayotgan bo'lsa, qo'llanilmaydi; 5) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Respublikamizda amalda bo'lgan imtiyozlar asosan: O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi hamda tegishli umumdavlat va mahalliy soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash to'g'risidagi yo'riqnomalarda, boshqa me'yoriy hujjatlarda qonuniy kuchga kirgan bo'lib, jahon soliq amaliyoti tajribalaridan foydalangan holda hamda respublikamiz iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda joriy etishga harakat qilingan.

5-jadval ma'lumotlarida ko'rib turganimizdek, yuridik shaxslar imtiyozlarining umumiy summasi 2013 yilda 95461,6 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilda 51635,2 mln. so'mni tashkil etgan, ya'ni o'sish ancha yuqori darajada bo'lgan. Ko'rib turganimizdek, bu foydalanilgan imtiyozlarning o'rtacha 2,5%i Prezident Farmonlariga asosan berilgan.

Soliq imtiyozlaridan foydalanish bo'yicha umumiy ma'lumotlar⁹

mln.so'mda

Soliq imtiyozlari taqdim etishga asos bo'luvchi hujjatlar	Soliq imtiyozlari summasi					
	2012 y		2013 y		2014 yil	
	summasi	%da	summasi	%da	summasi	%da
O'zbekistan Respublikasi Soliq Kodeksi	20115,2	38,2	27891,9	29,2	10351,2	20,2
O'zbekistan Respublikasi Prezidentining Farmonlari	793,436	1,9	896,902	0,9	828,773	1,6
O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari	11793,2	22,9	42690,5	44,7	10985,2	21,2
Halkaro kelishuvlar	98,7	0,2	1587,3	1,6	362,4	0,7
Hukumat komissiyasining hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va budjetga to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha qarorlar	19651,6	36,8	22395,5	23,6	29107,9	56,3
Jami	52452,1	100	95461,6	100	51635,5	100

Bu imtiyozlar asosan 1-guruhga tegishli ijtimoiy imtiyozlar bo'lib, ularning asosiy qismi uy-joy jamg'arma, bankka (50%) berilgan va u 2014 yil 945 mln. so'mni tashkil etgan. Boshqa foydalanilgan imtiyozlar summasi dehqon va buyum bozorlari infratuzilmasini rivojlantirishga, tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar palatasiga, O'zbeknavo, O'zbekkino, Teleradiokompaniya, Nuroni, Kamolot jamg'armalari, Ma'naviyat va ma'rifat markazi, muzeylar, teatrlar, xususiy tibbiyot muassasalari, Xalq Banki, Turkiston Press nodavlat agentligiga (anchagina katta miqdorda), Xalqaro kurash assotsiatsiyasiga berilgan imtiyozlardir. Shuningdek, bozor infratuzilmasi bo'lgan sug'urta kompaniyalari salmoqli imtiyozlarga ega bo'lganlar: 2013 yilda 28,8 mln. 2014 yilda 12,9 mln so'm; O'zbekinvest sug'urta kompaniyasi 2013 yilda 83 mln. so'm, 2014 yilda 85,2 mln so'm imtiyozga ega bo'lganlar. Bu imtiyozlar tarkibida ikkinchi guruh imtiyozlari, ya'ni rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan imtiyozlar ham mavjud. Ular 2012 yilda 10,0 foizni, 2013 yilda 21,5 % foizni, 2014 yilda 16,0 foizni tashkil etgan.

⁹O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tahliliy materiallari asosida tuzilgan.

4. Yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi

Dunyo iqtisodida Amerika Qo'shma Shtatlarining asosiy raqobatchilaridan biri bo'lmish Yevropa Ittifoqi va unga birlashgan yigirmadan ortiq mustaqil davlatlar o'tgan 2013-yil mobaynida bir qancha soliq islohotlarni amalga oshirdi. Shu jumladan, ko'pchilik Yevropa Ittifoqining vakillari bo'lmish Estoniya, Finlandiya, Litva, Latviya, Chexiya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya va yana bir qancha mamlakatlarda mol-mulk solig'ini qayta ko'rib chiqish, aholining turmush sharoitidagi qarzдорlik va ko'chmas mulkga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida ko'rilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalarini yanada kamaytirish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi. O'z navbatida, evropa ittifoqi komissiyasi tomonidan qayd etilganidek, mol-mulk solig'i aholining jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i stavkasini pasaytirish imkoniyatini beruvchi bir qancha ipoteka xizmatlaridan biri bo'lmish mol-mulkni shaxsiy qarzдорlik evaziga sotib olinishining rag'batlantirilishini o'z ichiga oladi. Mazkur rag'batlantirishlar amalda aholining qarzдорlik ko'rsatkichlarini pasayishida, mol-mulk narxlarining oshishida hamda mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

O'tgan yillar mobaynida, ko'plab mamlakatlarda mol-mulk bozorining o'tish bosqichida turganligi hamda moliyaviy inqirozlar dunyo moliyaviy bozorini zaiflashtirgani barchamizga ma'lum. Shuning uchun, evropa ittifoqi a'zolari kelishgan holda mol-mulk solig'i islohotlarini ipoteka xizmatlarining foiz stavkalarini hamda aholining qarzдорlik ko'rsatkichlarini pasaytirish maqsadida amalga oshirdi. Shu jumladan, Ispaniya o'tgan yildan boshlab yangi ipoteka xizmatlarining foiz stavkalarini keng qamrovda keskin pasaytirishni boshlagan bo'lsa, Gollandiya, Finlandiya va Estoniya mamlakatlari bu keskin o'zgarishlarni ma'lum vaqt davomida sekinlik bilan amalga oshirishni rejalashtirdi. Misol tariqasida shuni aytib o'tish mumkinki, Gollandiya hukumati mol-mulkga egalik qilayotgan jismoniy shaxslarga ular 30 yil mobaynida mol-mulkning boshlang'ich qiymati to'laqonligicha to'laganligidan so'ng yangi islohotga ko'ra mol-mulk solig'ining stavkasi kamaytirilgan holda to'lanishi belgilab qo'yildi.

Yaponiya soliq tizimida mol-mulk solig'i alohida o'ringa ega bo'lib, yirik uch guruh soliqlardan birini, ya'ni mol-mulk solig'i guruhini tashkil qiladi. Yaponiyada bu soliqni bizning mamlakatdan farqli o'laroq ham yuridik, ham jismoniy shaxslar bir xil stavkada to'laydilar. Odatda bu mol-mulk qiymatining 1,4 foizini tashkil qiladi. Mol-mulkni qayta baholash 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Soliqqa tortiladigan ob'ektga barcha ko'chmas mulklar, yer, qimmatbaho qog'ozlar, bank depozitlari bo'yicha foizlar kiradi. Soliq shuningdek, mulk bir egadan boshqasiga o'tgan vaqtida, ya'ni mulk sotish yoki sotib olish vaqtida ham to'lanadi.

Kanada mol-mulk solig'i mahalliy budjetni shakllantirgani sababli, mahalliy organlar tomonidan undiriladi. Har bir provintsiyada soliqqa tortish

maqsadida mulkni baholovchi maxsus bo'linmalar faoliyat yuritadi. Masalan, Ontario provintsiyasida 31ta bu kabi bo'linmalar faoliyat yuritmoqda. Bunda hamma binolar baholanadi. Jihoz va uskunalar baholashga kiritilmaydi. Asosiy baho mulkning erkin bazorda sotilishi mumkin bo'lgan bozor bahosi hisoblanadi.

Finlandiya mamlakatida mol-mulk solig'i stavkasini 2015-yilga kelib 70% ga kamaytirilishi rejalashtirilayotgan bo'lsa (hozirgi vaqtda 80% tashkil etadi), Estoniya hukumati 2012-yilgi mol-mulk solig'ining stavkasini 40% miqdorida kamaytirishga qaror qildi.

Ispaniyada jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 1920 yillarga qadar favqulodda soliq edi. Mol-mulk solig'i Ispaniyada mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslardan har yili undiriladi. Rezidentlar mol-mulkning qardaligidan qat'iy nazar uning butun summasidan, norezidentlar esa faqat Ispaniyadagi mol-mulk bo'yicha soliq to'laydilar. Mol-mulkning qiymati soliqqa tortiladigan baza bo'lib xizmat qiladi, undan arzonlashtirish miqdori chegirib tashlanadi. Madaniy va tarixiy boyliklar soliqqa tortilmaydi. Soliq rezidentlarning mol-mulk summasi 15 mln. pesetdan oshgan taqdirdagina to'lanadi (norezidentlarga bu qoida taalluqli emas). Soliq stavkalari mol-mulk qiymatining miqdoriga bog'liq bo'lib, umumiy qiymat summasining 0,2 foizdan 2,5 foizgacha miqdorda belgilangan. Ispaniyada ko'chmas mulk solig'i mahalliy budjetga tushadigan soliqlarga kiradi.

Ba'zi Yevropa mamlakatlari iqtisodiy o'sishga bo'lgan salbiy ta'siri sezilarli darajada emasligini xulosa qilib, ko'chmas mulkni soliqqa tortiladigan foiz ko'rsatkichlarini yanada oshirishga qaror qildi. Litva hamda Latviya hukumatlari mamlakatda aholining mol-mulk solig'i bazasini kengaytirishni va mahalliy hokimiyat tomonidan bundan oldingi soliq tizimidan kelib chiqqan holda yangi soliq stavkalarini o'zgarmas holda belgilanishini amalga oshirdi. Shu jumladan, ba'zi evropa mamlakatlarida bu islohotlarning asosiy maqsadi etib yirik miqdordagi mol-mulklarni hamda jamiyatning bu islohotlarga bo'lgan keskin harakatlarni e'tiborga olgan holda mol-mulk solig'ini yanada barqarorligini ta'minlash deya e'tirof etilgan. 2014 yilning iyun oyida, Sloveniya hukumati yangi yirik miqdordagi mol-mulkni soliqqa tortish tizimini joriy qildi (tijorat hamda tadbirkorlik maqsadida egalik qilinayotgan mol-mulk bundan mustasno). Umumiy qiymati 1 million yevrodan ortiq bo'lgan mol-mulk 0,5% stavka bo'yicha soliqqa tortiladigan bo'ldi (qiymati 2 million yevrodan ortiq bo'lgan mol-mulk uchun esa soliq 1 foiz etib belgilandi). Bu soliq to'lovi keyinchalik 2013 yilning yanvar oyiga kelib belgilanadigan mol-mulk qiymatini 5 yuz ming yevroga tushirish hamda fuqarolarning mol-mulkini soliqqa tortilish stavkasini yanada kamaytirish orqali barqarorlashtirildi. Irlandiya mamlakatida 2013 yilning iyul oyidan boshlab yangi mahalliy mol-mulkni soliqqa tortish tizimi ishga tushirildi (soliq stavkalari mahalliy aholining umumiy qiymati 1 million yevrodan oshmaydigan mol-mulki uchun 0,18% ni, undan yuqori qiymatda belgilangan mol-mulk uchun esa 0,25% ni tashkil etdi). Buyuk Britaniya mamlakatida 2013 yil aprel oyidan boshlab qiymati 2 million funt sterlinggacha

belgilangan ma'lum yuridik shaxslarning egalik qilayotgan mol-mulki yangi belgilangan tartibda yillik soliqqa tortish tizimi joriy etildi. Latvia hukumati o'tgan yilning bahoridan boshlab, uch va undan ko'p farzandli oilalarning mol-mulkini soliqqa tortish foiz stavkalari yangi qonun asosida kamaytirilishi mumkinligini qayd etdi.

Qolgan evropa mamlakatlari esa soliqqa tortiladigan mol-mulk qiymatini o'zgartirmasliklarini e'tirof etishgan. Biroq, ba'zi evropa Ittifoqi a'zolari joriy yilda mahalliy aholining mol-mulkini kadastr bahosini qayta ko'rib chiqishliklarini e'lon qilgan. Ruminiya mamlakatida mahalliy hukumat 2013 yil hisobotiga ko'ra mol-mulkni kadastr qiymatini qayta baholash siyosatini olib borgan taqdirda mol-mulkning kadastr bahosi 16% atrofida o'sish ehtimoli kutilmoqda. Gretsiya hukumati esa yangi mol-mulkni qayta baholash loyihasini taqdim etish ehtimolini matbuot hodimlariga habar bergan. Portugaliya yaqin o'tmishda yangi mol-mulk solig'ini joriy etish siyosatini qo'llab quvvatlovchi qiymati 4,9 millionga teng mol-mulkni qayta baholash yirik loyihasini nihoyasiga yetkazdi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari soliq tizimini isloh qilinishida Kipr Respublikasi singari 2013 yil yanvar oyidagi yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulk soliqi stavkasini oshirish siyosatini olib borishlari ham mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, mahalliy aholining mol-mulk qiymatini qayta baholamasdan soliq stavkalarini oshirish mol-mulkning hozirgi real qiymatining o'zgarishiga olib keladi. Barcha o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda, Estoniya hukumati 2013 yil yanvar oyidan boshlab, kichik va o'rta hajmdagi mol-mulkka egalik qilayotgan mahalliy aholini yer solig'idan ozod qilish orqali mol-mulk solig'ining to'lov qiymatini kamaytirdi. Italiyada esa 2012 yildan buyon joriy etilgan mol-mulkga egalik qilayotgan jismoniy shaxslarni majburiy mahalliy soliq to'lovi kelgusi mol-mulk solig'ini qayta ko'rib chiqish loyihasi tasdiqlangunga qadar vaqtinchalik amalda o'z kuchini yo'qotdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, so'ngi yil mobaynida qilingan soliq tizimidagi islohotlar kam daromadli aholining mol-mulkini kamaytirilgan soliq stavkasi bilan soliqqa tortish hamda yirik mol-mulk egalarini qo'shimcha majburiy soliq stavkalarini to'lattirish orqali soliqqa tortish siyosatini yanada barqarorlashtirishga muhim qadam bo'ldi.

XULOSA

Kurs ishimizda yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining o'ziga xos xususiyatlari, yuridik shaxslarning mol-mulkidan soliqni budjetga undirish mexanizmining amaldagi holati tahlili va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslarning mol-mulkidan soliqni budjetga undirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini amaliy jihatdan yoritib berishga harakat qildik va quyidagi xulosalarga keldik.

1-xulosa. Soliqlarning korxonalar tomonidan to'lanishi va umuman olganda, undirilishi ob'ektiv zarurat bo'libgina qolmasdan, balki undirilgan soliqlarning sarflanishi ko'proq ahamiyatga ega. Agar undirilgan soliqlar amalda samarali sarf etilsa, u iqtisodiyotni rivojlantirishga turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, korxonalar tomonidan to'lanadigan soliqlar budjet daromadlarini ta'minlashning asosiy manbasi hisoblanganligidan davlat tomonidan bajariladigan vazifalarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega, davlat siyosatining to'laqonli amalga oshirilishida zaruriy omil bo'lib hisoblanadi

2-xulosa. Mol-mulk solig'i ham korxonalar faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunisi qiziqarliki, korxonalarda to'plangan asosiy vositalar tarkibi o'rganib chiqilganda shunga amin bo'lindiki, yuridik shaxslarning aksariyatida ishlab chiqarish va texnologik jarayonga ishtirok etuvchi mulk ulushi juda past. Asosiy vositalarning passiv qismi xisoblangan ofis binolari, xizmat mashinasi, anchadan buyon foydalanilmaydigan omborlar kabi turlari balansda turibdi. Bizningcha, mulkdan samarali foydalanishni boshqarish uchun ularni aktiv va passiv qismlariga ajratilish asosida alohida-alohida stavkalarda soliqqa tortilishi kerak.

3-xulosa. Yuridik shaxslarning foydasini soliqqa tortish orqali davlat budjetining daromadlari shakllanibgina qolmasdan, balki iqtisodiyotni rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir eng avval, ushbu soliq bo'yicha imtiyozlarda namoyon bo'ladi.

Kurs ishi mavzusidan kelib chiqib hamda yuqoridagi tahlillarga asosan yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i borasida o'z fikr va takliflarimni bildirmoqchimiz:

1-taklif. Korxonalarning balansidagi ko'chmas mulkning turli xil shakllari ishlab chiqarish jarayonidagi bevosita ishtiroki va foydalanish samaradorligiga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi. Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning investitsion jihatini kuchaytirish maqsadida, ularni ishlab chiqarish jarayonidagi ishtirokidan kelib chiqib, bu mol-mulklarga nisbatan progressiv soliq stavkalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bunda esa korxona mol-mulklarini ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi ko'chmas mulklar va noishlab chiqarish xarakteridagi ko'chmas mulklarga ajratish lozimdir. Birinchi guruhga korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini joylashtirish va ishlab chiqarish jarayoniga xizmat qilish uchun mo'ljallangan bino va inshootlar kirsas, ikkinchi guruhga qolgan barcha ko'chmas mulklar kiritiladi. Ko'chmas mulklarni

bunday tarzda guruhlab, mol-mulk solig'iga tortish ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan bo'lar edi.

2-taklif. Mol-mulk solig'ining rag'batlantiruvchilik xususiyatini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etishdir. Bizningcha bu minimumning joriy etilishi endigina o'z faoliyatini boshlagan, iqtisodiyot uchun muhim tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini birmuncha yaxshilashga xizmat qilgan bo'lar edi. Korxona imtiyozdan bo'shagan mablag'ni ishlab chiqarishga qayta tashlashi natijasida esa uning kelgusidagi soliq bazasini kengaytirilishiga erishilgan bo'lar edi. Kelgusida soliqqa tortiladigan bazaning kengayishidan esa davlat bevosita manfaatdordir. Bugungi kunda esa rivojlangan mamlakatlarda bu amaliyotdan keng miqyosda foydalaniladi.

3-taklif. Amaldagi qoidalarga ko'ra hozirda mol-mulk solig'i to'lovchilarning aksariyati bir xil darajadagi soliq stavkasi bo'yicha soliqqa tortilayotir. Bu o'z navbatida, soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil yondashilayotganligidan dalolat beradi. Soliq to'lovchilarga nisbatan bir xil talab qo'yilishi, o'z navbatida, ularning barchasi bir xil sharoitga ega bo'lgan taqdirda o'z ma'nosiga egadir. Shuning uchun, mol-mulkdan olinadigan soliq stavkasini soliq to'lovchilar mol-mulkini qayta baholash natijalari va samaradorlik darajasini hisobga olgan holda belgilash maqsadga muvofiqdir.

4-taklif. Bizning nazarimizda mol-mulkni soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning ikkinchi bosqichi bo'lib, bunda soliqqa tortish maqsadida yagona ob'ektni o'rnatilishi bo'lishi mumkin, u yagona soliqqa tortiladigan majmua sifatida, soliqqa tortiladigan baza o'z ichiga yer uchastkalarini (shartli ravishda urning bahosini ishlab chiqish bilan) va asosiy fondlarni qiymatini olib, birxil soliqqa tortish bazasiga ega bo'lgan yer va mol-mulk soliqlarini ob'ektini (ko'chmas mulkga) bixillashtirishdan iborat.

Yuqorida berilgan takliflarni inobatga olinishi yuridik shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishga, moliyaviy mustahkam soliq to'lovchilar sonining ortishiga hamda davlat budjetiga soliq tushumlarini barqaror tushishini ta'minlashga olib keladi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: “O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014 y. -40 B.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: “Adolat”, 2014 y. -692 B.
3. O'zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to'g'risida”gi Qonuni. 1997 yil, 29 avgust.
4. O'zbekiston Respublikasining “Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat nazorati to'g'risida”gi Qonuni. 1998 yil 24 dekabr.
5. O'zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatini kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni. 1999 yil 14 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-2099-son Qarori
8. Karimov I.A. “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi.
9. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. -526 b.
10. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho'lpon nomidagi NMIU”, 2013. -296 b.

11. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. -247 b.
12. Yuldashev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiy etilgan/ A. Yuldashev. - T.: " Fan texnologiya", 2007. - 128 s
13. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.
14. O'rmonov J. Mahalliy budjet daromadlarini oshirish yo'llari. //Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-printsipial muxim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislar to'plami. -Toshkent, 2005. -B. 156-157.
15. <http://www.prezident.uz-O'z.R>. Prezidenti rasmiy sayti
16. <http://www.gov.uz-O'z.R>. Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti
17. <http://www.soliq.uz-O'z.R>. Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti
18. <http://www.mf.uz-O'z.R>. Moliya vazirligi rasmiy sayti
19. <http://www.stat.uz-O'z.R>. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti
20. <http://www.lex.uz-O'z.R>. Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.
21. <http://www.ziynet.uz> - Jamoat axborot ta'lim tarmog'i
22. <http://www.nalog.ru> - Rossiya Federatsiyasining Federal soliq xizmati
23. <http://www.fmc.uz> - “FINMANCONSULT” kompaniyasi
24. <http://www.norma.uz> - “NORMA HAMKOR” MChJI